

**ONA TILI DARSLARIDA NUTQIY KOMPETENSIYANI  
RIVOJLANTIRIVCHI METODIKASI**

**Oygul Maxmudova,**

*TDPU, O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi  
talabasi. Toshkent. O‘zbekiston.*

[maxmudovaoygul9801@gmail.com](mailto:maxmudovaoygul9801@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘quvchilarning og‘zaki nutqida paydo bo‘ladigan muammolarning sabablari hamda ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyani, nutqiy faoliyatini rivojlantirish borasidagi turli metodlarning tutgan o‘rni, ularni dars jarayonida qanday qo‘llash kerakligi haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta‘lim tarbiya jarayoni, zamonaviy ta‘lim, metod, og‘zaki nutq, nutqdagi muammo, varvarizm, vulgarizm, argon, jargon, “Sabab-natija”, “Bilasizmi?”, “To‘rtinchisi ortiqcha...” guruh, jamoa, muammoli vaziyat.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются причины проблем устной речи учащихся и роль различных методов в развитии речевой компетентности и речевой активности учащихся на занятиях родным языком, а также способы их использования в ходе урока.

**Ключевые слова:** образовательный процесс, современное образование, методика, устная речь, речевая проблема, варварство, вульгаризм, сленг, “Причина и следствие”, “Знаете ли вы?”, “Четвертое – это плюс...” группа, коллектив, проблемная ситуация.

**Annotation.** This article discusses the causes of students’ oral speech problems and the role of various methods in developing students’ speech competence and speech activity in native language classes, and how to use them in the course of the lesson.

**Key words:** educational process, modern education, method, oral speech, speech problem, barbarism, vulgarism, slang, “Cause and effect”, “Do you know?”, “Fourth is a plus...” group, team, a problematic situation.

Bilamizki, fikrni ifodalash usuliga ko‘ra nutq og‘zaki va yozma bo‘ladi. Og‘zaki nutq yozma nutqdan quyidagicha farqlanadi: og‘zaki nutq tovush nutqi, yozma nutq esa grafik nutqdir. Og‘zaki nutqda eshitish sezgisi, yozma nutqda esa ko‘rish va harakat (qo‘l harakati) sezgisi asosiy o‘rin tutadi. Og‘zaki nutq ham, yozma nutq ham kishilarning o‘zaro aloqa quroli sifatida xizmat qiladi, ammo og‘zaki nutq aniq hayotiy sharoitda, bevosita aloqa jarayonida yuzaga keladi; yozma nutqdan bevosita, aniq sharoitdan ajratilgan holda ham, kishi ishtirokisiz ham foydalaniladi.

Bugungi kunda yoshlar nutqida eng ko‘p uchraydigan xatolar qatoriga chetki so‘zlardan ko‘p foydalanish ya‘ni varvarizm, vulgarizm, argon va jargon kabilarni uchratishimiz mumkin. Bunday hodisalar ham o‘quvchi nutqining sofliqiga, uning mazmundorligiga, bayon qilinayotgan fikrning aniqligiga katta zarar yetkazadi. Yuqorida sanab o‘tilgan ayrim so‘zlarning izohiga alohida to‘xtalib o‘tsak.

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Jargon – (frans. safsata) - biror ijtimoiy guruhning o‘ziga xos leksikasi, fonetikasi va grammatikasi bilan umum so‘zlashuv tili va mahalliy dialektlardan farq qiladigan tili. Jargon muayyan ijtimoiy muhitda yuzaga keladi va shular manfaatiga xizmat qiladi. Masalan, yoshlar orasida “ketdim” o‘rnida “sirpandim”, “pul” o‘rnida “soqqa”, “dollar” o‘rnida “ko‘ki”; san’atkorlar orasida “xizmat uchun haq olmaslik” o‘rnida “tom suvoq”, “pul” o‘rnida “yakan” va h. k.

Argon – (frans. argot — jargon) — ma’lum toifa kishilargagina tushunar-li so‘zlar mavjudligi bilan umumxalq ti-lidan farq qiluvchi, biror ijtimoiy to-ifa, guruh (mas, dallollar, sportchilar, talabalar, o‘g‘rilar va hokazo)ga xos yasama til.

Vulgarizm - haqorat ma’nosida qo‘llanadigan so‘zlar. Bunday leksemalar yoki ularning vulgar ma’nolari adabiy til birligi sanalmaydi, ularni qo‘llash nutq madaniyatiga xilof deb qaraladi, ammo badiiy asar tilida bunday so‘zlardan uslubiy vosita sifatida foydalaniladi.

Varvarizm – (yun. barbaros — aynan ajnabiy) — ma’lum bir tilga chet tillardan kirib kelgan, tilda to‘la o‘zlashmay, yotligi bilinib turadigan so‘z va iboralar. Varvarizmlar asosan so‘zlashuv uslubiga xos, tilning adabiy me’yorini buzadi va uning asosiy lug‘at tarkibiga kirmaydi. Varvarizmlardan ba’zan badiiy adabiyotda mahalliy muhitni berish, obrazlarni xoslashtirishda foydalaniladi.

Og‘zaki nutq jarayonida bunday so‘zlardan foydalanishni kamaytirish uchun avvalo, o‘quvchilar so‘z boyligini oshirish, so‘zlardan o‘rinli va nutq so‘zlanayotgan muhitni inobatga olgan holda foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish zarurdir.

Hozirgi pedagogik amaliyotda ta’lim metodlarining 200 dan ortiq turi mavjudligi e’tirof etiladi. Bu kabi metodlar , avvalo, o‘quvchilarda o‘zlarining bilim va ko‘nikmalarini oshirish, o‘z fikrlarini erkin ifodalay olish, so‘z boyligini oshirish, fikr-mulohazalarini himoya qila olish va chiroyli ifodalay olish, guruh va jamoa tartibida ham erkin ishlay olish imkoniyatlarini ochib beradi.

Shu o‘rinda aytish joizki, yuqorida aytilgan 200 dan ortiq ta’limiy metodlar orasida ham o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini hamda so‘z boyligini oshirishga qaratilgan bir qator metodlar ham mavjuddir. Bularga misol qilib esa , “To‘rtinchisi ortiqcha... ”, “Sabab-natija”, “Bilasizmi?” va kabilarni sanab o‘tishimiz mumkin. Yuqorida sanab o‘tilgan metodlarimizni individual tarzda ham jamoaviy tarzda ham qo‘llay olishimiz mumkin.

“To‘rtinchisi ortiqcha... ” metodini og‘zaki nutqni rivojlantirishda qo‘llash mumkin. Metodda o‘quvchilarning barchasiga ma’lum bo‘lgan ertak, hikoya yoki qissa qahramonlari nomlari yoziladi va ular orasiga ushbu manbaga umuman aloqasi bo‘lmagan yana bir qahramon nomini ham qo‘shib qo‘yamiz. Masalan, Zumrad, Qimmat, Chol, O‘gay ona va Qorbobo kabi. Bunda o‘quvchi ushbu qahramonlar

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

orasidagi ortiqcha bo‘lgan qahramon “qorbobo”ni topishadi. Keying shartda esa o‘quvchi ushbu ortiqcha qahramonni qatnashtirgan holda ertakni yangicha usulda qayta hikoya qilishi kerak bo‘ldi. Bu metod ham bolani ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirishga yordam beradi. O‘quvchilar nutqini rivojlantirishga qaratilgan interfaol metod qatorida “Sabab-natija” metodini ko‘rsatishimiz mumkin. Ushbu metodda sabab-natija tarzidagi savollardan foydalaniladi. Masalan:

- Ota – onani nega qadrlash kerak ?
- Nega “kattalarga hurmatda bo‘ling, kichiklarga izzatda” deyishadi ?
- Nega “Suv- obihayot” deyiladi ?

Ushbu metoddan biror asar g‘oyasini tushunishda o‘quvchilarga yordam berishni ko‘zda tutgan jarayonlarda ham foydalansa bo‘ladi.

“Bilasizmi?” metodi orqali hozirda tilimizda ko‘p qo‘llanayotgan ruscha so‘zlarni o‘zbekcha ma‘nosini bilib olishadi va nutq so‘zlash jarayonida ushbu so‘zning ruscha emas balki, o‘zbekcha variantini qo‘llashga o‘rgatiladi. Ushbu metodni qo‘llashda o‘quvchilar sonidan kelib chiqib uch yoki ikki guruhga bo‘linadi. Har bir guruhga ketma-ketlikda bittadan so‘z aytiladi qaysi guruh aytilgan so‘zning ma‘nosini to‘g‘ri topsa o‘sha guruhga bir ball beriladi. O‘yin oxirida eng ko‘p ball olgan guruh g‘olib bo‘ladi. Beriladigan so‘zlardan namunalar “zvanok”, “zato”, “slyshkom”, “otvet”, “xotya by”, “zaryadka”, “tochna”, “tolka” va h.k.

Bundan tashqari, adabiyot darsi va u bilan bog‘liq holda olib boriladigan kuzatish, ekskursiya o‘quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala qilish haqida bilim beradi. Bu darslarda bolalar nutqiga, uni shakllantirish va o‘stirishga keng imkoniyat mavjud. Badiiy asarlarni o‘qish, o‘qilganlarni qayta hikoyalash, ekskursiyada, predmet va tabiat hodisalarini kuzatish vaqtida ko‘rganlarini hikoya qilish o‘quvchilar og‘zaki nutqini o‘stirish vositasidir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, ta’lim jarayonida turli metodlardan foydalanish, o‘quvchilar bilan alohida shug‘ullanish, o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini oshirishga qaratilgan turli xildagi metodlardan foydalanish, ularni imkon darajada so‘z boyligini oshirish, so‘z qo‘llay olish imkoniyatlarini oshirishga yo‘naltirilgan metodlardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishga, o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni ta’minlashga, o‘z fikrini erkin ifodalay olish imkoniyatlarini oshirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva Q. Nutq o‘stirish. – T.:O‘qituvchi, 1980.

# **“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**

2. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Xoliqova Z. “Inetrfaoal metodlar:mohiyati va qo‘llanishi”. –Tosheknt,2013.
3. Usmonboyeva M., Aripova Sh., Rejametov I., Mo‘minova D. “Ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish”. – Toshkent,2019.
4. Yo‘ldoshev D. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. –Buxoro.2021.
5. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
6. Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA’SIRI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 24-27.
7. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
8. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.
9. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
10. Omanova, M. A. (2020). Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence. *Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(10), 415-419.
11. Atabayeva, G. Z. (2024). NIZOMIY GANJAVIYNING “XAMSA” ASRIDAGI OBRAZLAR TAHLILI VA GENEZISI. 2-SYN, 1-YIL YANVARYA 2024-GO-1-YIL KISHM, 12.
12. Burxanova, Feruza. "JAHON ADABIYOTI NAMUNALARI NAZAR ESHONQUL NIGOHIDA." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 4.20 (2024): 68-78.
13. Kadirova, M. (2022). The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 3(03), 1-6.
14. Omanova, M. (2024). Bahouddin Naqshband to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks etgan asarlar. “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari”. – Toshkent: 139-146.